

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANNI O'QITISHDA INNOVATSION
METODLARDAN FOYDALANISH VA O'QUVCHILAR
DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH**

Xolmurodova Muxlisa O'rol qizi
*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti talabasi*

Kalit so'zlar: *metod, innovations metod, loyiha ishi, muammoli savol.*

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikamizda olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham mustaqil fikrlovchi , keng dunyoqarashga ega , iqtidorli, barkamol shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero o'zgalar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir. Mustaqil fikrlash borliqni , voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli sanaladi. U aqliy faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Fikrsiz inson yaratish va o'sishga qodir bo'limgan o'lik jussaga aylanadi. Demokratik jamiyatda har bir inson mustaqil fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasalar , berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda boshlang'ich sinfda Tabiiy fanni o'qitish muhim sanaladi. O'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlilik dars davomida amalga oshirilmasdan balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir.

Tabiiy fan o'z oldiga olamning ilmiy manzarasi haqidagi yaxlit tasavvurni hosil qilish , ilmiy bilish usullarini o'zlashtirish va ularni zamonaviy inson qadriyatlari tizimiga kiritishni maqsad qilib qo'ygan.

Inson dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tabiat haqidagi bilimlar tashkil qiladi. Yosh o'quvchilar tabiat to'g'risidagi dastlabki bilimlarni o'rganishga kirishar ekan, yetarli darajada tizimlashtirilmagan bilimlar hajmini his qiladilar. Fanlarni entegratsiyalash mazkur muammoni hal etish imkonini beradi.

Har bir yangi mavzuda berib boriladigan ma'lumotlar o'quvchilarning dumyoqarashini o'stirishda bevosita xizmat qiladi. Masalan, " Organ va organlar sistemasi" mavzusini olaylik. Bu mavzuda asosiy maqsad;

- 1 organ va organlar sistemasi qanday tuzilishini o'rganish;
- 2 nafas olish, ovqat hazm qilish sistemasining faoliyatini o'rganish;
- 3 qon aylanish sistemasiga kiruvchi organlarni o'rganish kabilardan iborat.

O'quvchilarning barchasi odam organizmi qanday organlardan tashkil topganligini, odam organizmi bir nechta organlar sistemasidan tashkil topganligini,

tayanch-harakat, nafas olish , ovqat hazm qilish sistemasi organlari va uning ahamiyati haqida aytadi. Odam organizmi salomatlikni asrashda muhim ekanini biladi. Aksariyat o'quvchilar esa odam organizmlarini izohlab beradi. Bundan tashqari, tayanch-harakat , nafas olish, ovqat hazm qilish, qon aylanish sistemalarini misollar bilan tushuntiradi.

Dras mavzusidan tashqari o'quv faoliyatga yo'naltiradigan savollar berish ham o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi. Dunyoqarashini o'stirib mantiqan o'ylashga undaydi. Masalan, quyidagicha savollarni berish mumkin;

1 Nega Matematika kitobi har doim bolalardan xafa?

2 Qaysi so'z har doim noto'g'ri yoziladi?

3 Nima uchun robotlar xech narsadan qo'rqishmaydi?

4 Mana , siz yuqoridagi topshiriqlardan tabassum qildingiz. Bu vaqtida mushaklar qisqaradimi?

O'quvchilar bu savollarga mantiqan yondashgan holda javob berishlari muhim.

1 Matematika kitobi har doim muammolarga to'la bo'lgani uchun xafa.

2 Noto'g'ri so'zi har doim noto'g'ri yoziladi.

3 Robotlar temirdan yasalgan. Ular hissiyotga ega bo'limgaganliklari uchun xech narsadan qo'rqlaydilar.

4 Ha , biz tabassum qilsak mushaklarimiz qisqaradi.

O'quvchilar mavzuga oid ma'lumotlarni o'zlashtirar ekanlar, guruhiba hamkorlikda ishlash, munozarada gapirish va tinglash orqali o'quvchilarda kommunikativ va amaliy kompetensiyalar shakllanadi.

Tadqiqot olib borish orqali mavzu doirasi kengayadi. O'quvchilar mavzuni tushunibgina qolmasdan, uni o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Mavzu yuzasidan o'quvchilar bilan birgalikda kichik tadqiqot o'tkazish orqali o'quvchini izlanishga bo'lgan qiziqishi ortadi. Tadqiqot natijalarini o'zining dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda qayd etib boradi. Bu esa uning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchini mustaqil fikrlasha o'rgatish qachondan boshlanadi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Buning uchun insonning fikrlash jarayonining shakllanish bosqichlarini bilish lozim. Insonning fikrlash jarayoni hayotni, insonlarni, ular orasidagi munosabatlarni , tabiatni sezgilar yordamida kuzatish jarayonida shakllanib boradi.

Ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish katta samara beradi. Innovatsion metodlar asosida tashkil qilingan darsda o'quvchi faol qatnashadi. O'qituvchi va o'rtoqlari bilan erkin muloqotga kirishadi. O'quvchilarni o'quv materiali ustida erkin fikrlashga imkoniyat yaratib beradi. Bunday metodlar vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Muhimi, o'quvchilar darsda o'z fikrini erkin bayon qilishga o'rganadi, mustaqil fikrlar bildira boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Юсупова, Махпаза Нумановна. "БИОЛОГИЧЕСКИЙ МЕТОД ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ." *Scientific Impulse* 1.9 (2023): 1460-1464.
- 2) Юсупова, Махпаза Нумановна. "САБЗАВОТ ЭКИНЛАРИГА БИОЛОГИК КУРАШ ҲАҚИДА МУЛОХАЗАЛАР." *Scientific Impulse* 1.9 (2023): 1469-1473.
- 3) Юсупова, Махпаза Нумановна. "ФАРГОНА ВОДИЙСИ ШАРОИТИДА ИГНА БАРГЛИ ДАРАХТЛАРНИ ЗАРАРКУНАНДАЛАРДАН ҲИМОЯЛАШ." SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6.4 (2023): 316-320.
- 4) Юсупова М. Н., Ахмедова М. М. МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРНИ ЗАРАРКУНАНДАЛАРИГА УЙҒУНЛАШГАН КУРАШ ЧОРАЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – Т. 2. – №. 8.
- 5) Ходжаев, Ш. Т., Сагдуллаев, А. У., Исаев, О. Б., & Юсупова, М. Н. (2011). Проблемы защиты растений в Узбекистане. Защита и карантин растений, (8), 23-24. Юсупова М. Особенности защиты хлопчатника посевного под пленки от вредных организмов //Автореф. канд. дисс./М. Юсупова-Ташкент. – 2001.
- 6) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Курязов, Ш., & Саттаров, Н. (2008). Перспективы биологической защиты хлопчатника от хлопковой совки. Сб. трудов.-Ташкент: Таллин, 44-49.
- 7) Yusupova M. N., Nosirov B. Z. Pests of cotton and straw control at collection //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-Peer Reviewed Journal. – 2020. – Т. 6. – №. 12. – С. 57-61.
- 8) Yusupova M. N., Axmedova M. M. Mevali daraxtlarni zararkunandalariga uygunlashgan kurash chorralari //Jurnal JURNAL AGRO PROTSESSING. Data publikatsii. – 2020. – №. 8. – С. 12.
- 9) Yusupova M. N. Biological method of crop protection in the fergana valley //Agrarian science. – 2018. – №. 6. – С. 68-70.
- 10) Urmonovich, Numonov Otabek. "MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 14.5 (2023): 3-5.
- 11) MN, Yusupova, and B. Z. Nosirov. "Control Of Cotton Pests On Stubble Lands." International Journal of Applied 10.2 (2015): 99-108.
- 12) Юсупова М. Н., Тургунова А. Н., Очилов С. Н. Система интегрированной защиты растений //Российский электронный научный журнал. – 2015. – №. 1. – С. 169-174.
- 13) Alimzhanova Z. I., Kadyrova D. S., Yusupova M. N. Ceramic pigments based on raw materials from Uzbekistan //Glass and Ceramics. – 2014. – Т. 70. – №. 11-12. – С. 441-443.
- 14) Yusupova M. N., Gapparov A. M. Biological Method Of Plant Protection In Uzbekistan //The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering. – 2020. – Т. 2. – №. 11. – С. 29-32.

- 15) Rashidovna M. N., Urmonovich N. O. Comparative Characteristics of the Leaving of Glutathione From Cells of Different Types //International Journal on Orange Technologies. – Т. 2. – №. 10. – С. 79-82.
- 16) Юсупова М. Н., Носиров Б. З. БИОЛОГИЧЕСКИЙ МЕТОД ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ //Научно-практические пути повышения экологической устойчивости и социально-экономическое обеспечение сельскохозяйственного производства. – 2017. – С. 498-501.
- 17) Urmonovich, N. O. (2023). MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 14(5), 3-5.
- 18) Yusupova M. et al. Protection of after harvest cultures-as a reservetors of cotton pests //Agriculture and Biology Journal of North America. – 2013. – Т. 4. – №. 5. – С. 576-582.
- 19) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Юлдашев, Ф., Исаев, О. Б., & Шокирова, Г. (2011). Борьба с вредителями хлопчатника на пожнивных культурах в севообороте. Вестник защиты растений, (2), 46-52.
- 20) Yusupova M. N. et al. Possibilities of the biological method of cotton plant protection //Agriculture and Biology Journal of North America. – 2011. – Т. 2. – №. 5. – С. 742-744.
- 21) Ходжаев, Ш. Т., Юсупова, М. Н., Юлдашев, Ф., & Жамалов, А. Г. (2010). Хлопковая совка на пожнивных культурах. Защита и карантин растений, (12), 22-23.
- 22) Хайдарова, Х. А., Юсупова, М. Н., Ихтиярова, Г. А., & Хайдаров, А. А. ПОЛУЧЕННІ ХІТОЗАНА ИЗ ПОДМОРА ПЧЕЛ APIS MILLIFERA. Сучасний рух науки: тези доп. XI міжнародної науково-практичної інтернет-конференції, 8-9 жовтня 2020 р.-Дніпро, 2020.-Т. 2.-426 с., 352.
- 23) Yusupova M., Turgunova A., Ochilov S. INTERGRATED PLANT PROTECTION SYSTEMS.
- 24) Abduhamidovich N. A. et al. MANGOSTIN DARAXTI VA MEVASINI TIBBIYOTDA FOYDALANISH //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 2. – С. 12-14.
- 25) Urmonovich N. O. MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №. 5. – С. 3-5.
- 26) Юсупова, Махпуза Нумановна. "АНОРНИ ЗАРАКУНАНДАЛАРДАН ҲИМОЯЛАШ." PEDAGOG 6.4 (2023): 562-567.